

O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA SIFAT XARAJATLARINI BOSHQARISH VA INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvaliyev Zafar Mahmudovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
dotsenti, if.f.d., PhD.

ORCID: 0000-0001-7291-1469

E-mail: z.abduvaliyev@taqu.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistondagi qurilish korxonalari faoliyatida sifat xarajatlarini boshqarish va ularni integratsiyalashgan hisobot tizimi orqali yoritish masalalari tadqiq qilingan. Maqolada qurilish sohasidagi «yashirin» sifat xarajatlari (qayta ishlash, nuqsonlarni tuzatish) tahlil qilinib, ularni moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtiruvchi hisobot modeli taklif etilgan. Taklif etilgan modelning amaliy asoslanganligi qurilish materiallari sanoati korxonalarining 2024-yil yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari hamda bir qator korxonalarda integratsiyalashgan hisobot elementlarini joriy etish tajribasi misolida ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasining shaharsozlikka oid qonunchiligi, MHXS (IFRS) talablari va "Shaffof qurilish" tizimi imkoniyatlari inobatga olingan holda ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan hisobot, qurilish, sifat xarajatlari, MHXS 15, ESG, Shaffof qurilish, barqaror rivojlanish, steykxolder, korporativ ijtimoiy mas'uliyat.

Аннотация

В статье исследованы вопросы управления затратами на качество в деятельности строительных предприятий Узбекистана и их отражения посредством системы интегрированной отчетности. Проанализированы «скрытые» затраты на качество в строительной отрасли (переделки, устранение дефектов), предложена модель отчетности, объединяющая финансовые, экологические и социальные показатели. Практическая обоснованность предложенной модели показана на примере официальных статистических данных предприятий промышленности строительных материалов по итогам 2024 года, а также опыта внедрения элементов интегрированной отчетности на ряде предприятий. Научные выводы даны с учетом законодательства Республики Узбекистан в области градостроительства, требований МСФО (IFRS) и возможностей системы "Шаффоф курилиш" ("Прозрачное строительство").

Ключевые слова: интегрированная отчетность, строительство, затраты на качество, МСФО 15, ESG, Шаффоф курилиш, устойчивое развитие, стейкхолдер, корпоративная социальная ответственность.

Abstract

This article investigates the management of quality costs in the operations of construction enterprises in Uzbekistan and their disclosure through an integrated reporting system. The study analyzes the "hidden" quality costs in the construction

sector (rework, defect correction) and proposes a reporting model that integrates financial, environmental, and social indicators. The practical validity of the proposed model is demonstrated using official 2024 statistical data on construction-materials industry enterprises, as well as the experience of implementing integrated-reporting elements at a number of enterprises. Scientific conclusions are drawn with due regard to the urban-planning legislation of the Republic of Uzbekistan, IFRS requirements, and the capabilities of the "Shaffof Qurilish" ("Transparent Construction") information system.

Keywords: integrated reporting, construction, quality costs, IFRS 15, ESG, Shaffof Qurilish, sustainable development, stakeholder, corporate social responsibility.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylangan qurilish tarmog'i mamlakat YAIM tarkibida barqaror o'sishni namoyon etmoqda. Hukumatning "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli uy-joy qurilishi dasturlari, infratuzilma loyihalari va urbanizatsiya jarayonlari sohaga katta investitsiyalar oqimini ta'minlamoqda. Biroq, bu jadal o'sish bilan birga, ijro etilayotgan qurilish-montaj ishlarining sifati, xavfsizlik standartlariga rioya etish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari eng dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

An'anaviy moliyaviy hisobotlar tizimi (BHMS/MHXS asosida) korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini aks ettirsa-da, ular qurilishdagi nomoliyaviy va strategik jihatlarni to'liq qamrab ololmaydi. Xususan, obyektlarning sifatini ta'minlashga qaratilgan yoki sifatsizlik oqibatida kelib chiqqan xarajatlar (qayta ishlar, materiallar isrofi, sud jarayonlari) buxgalteriya hisobida ko'pincha umumiy ma'muriy yoki boshqa operatsion xarajatlar tarkibida "yashiriladi". Bu esa korxona rahbariyatiga mazkur xarajatlarning real hajmi va sifatsizlikning uzoq muddatli iqtisodiy ta'sirini aniq baholash imkonini bermaydi.

Jahon amaliyotida Integratsiyalashgan hisobot konsepsiyasi rivojlangan bo'lib [1], u korxonaning moliyaviy kapitalidan tashqari, inson, intellektual, tabiiy va ijtimoiy kapitallarini ham qamrab oladi. Ushbu konsepsiyani targ'ib qilish maqsadida 2009-yil dekabrda A4S va GRI tashkilotlari Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi bilan hamkorlikda Integratsiyalashgan hisobot bo'yicha xalqaro qo'mita (IHXQ) tuzishni taklif etgan, qo'mita esa rasman 2010-yilda tashkil topgan [2]. "Deloytt" kompaniyasi mutaxassislarining ta'rifiga ko'ra, integratsiyalashgan hisobot turli hisobot turlarini (moliyaviy, menejment, boshqaruv va mukofotlash, barqarorlik to'g'risidagi hisobot) yagona tizimga birlashtirib, korxonaning qiymat yaratish va uni ko'paytirish qobiliyatini izohlab beradi [2]. O'zbekistonning 2030-yilgacha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini inobatga olganda, qurilish chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va mehnat xavfsizligini ta'minlash kabi ESG (Ekologiya, Ijtimoiy, Boshqaruv) ko'rsatkichlarini shaffof ochiqlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrda PF-6119-sonli "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [3] hamda PQ-4611-

sonli qarori (MHXSga o'tish) [4] qurilish korxonalari oldiga shaffoflik va xalqaro standartlarga mos hisobotlarni yuritish vazifasini qo'yadi.

Mavzuning dolzarbligi faqat milliy miqyosda emas, jahon amaliyotida ham yaqqol namoyon bo'ladi. MarketsandMarkets tadqiqot kompaniyasining bahosiga ko'ra, jahon qurilish bozorining 2024 yildagi yillik o'sish sur'ati 6,0 foizni tashkil etishi va bozor hajmi 13 572,4 milliard dollargacha yetishi prognoz qilingan edi [5]. Ushbu bozorda Bechtel Group (AQSH), Balfour Beatty (Buyuk Britaniya), Grupo ACS (Ispaniya), China State Construction Engineering Corporation Limited (Xitoy), L&T Construction (Hindiston) kabi yirik kompaniyalar yetakchilik qiladi [5], ularning barchasi investorlar oldida shaffoflikni ta'minlash maqsadida moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirgan hisobot amaliyotini qo'llaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotining 2024-yil yakunlari ham qurilish tarmog'ining ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat YAIMi joriy narxlarda 1454,6 trillion so'mni (o'rtacha almashuv kursi bo'yicha taxminan 115 milliard dollarni) tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga o'sdi [6]. Shundan qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati 8,8 foizga oshib, 233,8 trillion so'mni tashkil etdi; sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati 6,8 foizga (shu jumladan qayta ishlash sanoati 7,7 foizga) o'sib, uning YAIM tarkibidagi ulushi 2023-yildagi 25,3 foizdan 2024-yilda 26,4 foizga ko'tarildi [6]. Mazkur ko'rsatkichlar qurilish va unga tutash tarmoqlarda ishlab chiqariladigan qiymatning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini hamda bu boradagi hisobot shaffofligini ta'minlash zaruratini yaqqol isbotlaydi.

Sohada shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlar ham amalga oshirilmoqda. "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi dastlab Prezidentning 2019-yil 20-sentyabrdagi PQ-4464-son qaroriga muvofiq Toshkent viloyatida tajriba tariqasida joriy etilgan [7], so'ngra Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi 732-son qarori asosida butun respublikani qamrab olgan [8]. Ushbu tizimning amaliy samaradorligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich shundan iboratki, raqamlashtirish natijasida qurilishga ruxsat olish uchun zarur bo'lgan umumiy muddat 2021-yildagi 39 kundan 25 kungacha qisqargan [9]. Bundan tashqari, tizim doirasida pudratchi va loyihachi tashkilotlarning yagona elektron reytingi yuritilishi nazarda tutilgan [8]. Bu orqali sohada halol raqobat muhitini shakllantirish va sifatsiz ish bajargan tashkilotlarning kelgusidagi loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini tabiiy ravishda cheklash ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda qurilish sohasi uchun sifat xarajatlarini tahlil qilish va ularni MHXSga o'tish jarayoni talab qilayotgan "Rahbariyat sharhi" yoki integratsiyalashgan hisobot tarkibiga kiritish bo'yicha aniq metodologik asoslar mavjud emas.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - qurilish korxonalarida mahsulot (obyekt) sifatini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash va ularni integratsiyalashgan hisobot tarkibida aks ettirish metodologiyasini ishlab chiqishdir.

ADABIYTLAR SHARHI

Qurilish korxonalarida sifat xarajatlarini boshqarish va ularni integratsiyalashgan hisobotda aks ettirish masalasi sifat menejmenti, korporativ hisobot hamda manfaatdor

tomonlar bilan munosabatlarni o'rganuvchi yondashuvlar bilan bog'liq. Integratsiyalashgan hisobotning xalqaro konseptual asosida korxonaning qiymat yaratish jarayoni moliyaviy va nomoliyaviy kapital turlarining o'zaro aloqasi orqali yoritiladi [1]. Ushbu yondashuv qurilishdagi sifat xarajatlarini tannarx bilan bir qatorda xodimlar malakasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, tabiiy resurslardan foydalanish va buyurtmachilar ishonchi bilan bog'liq holda tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan hisobot korporativ hisobot rivojlanishining yangi bosqichi sifatida o'rganilgan tadqiqotda moliyaviy va nomoliyaviy axborotni yagona tizimda taqdim etish masalalari yoritilgan [2]. Bu qarash qurilish korxonalarining faoliyatini baholashda moliyaviy natijalarni ularni shakllantirgan tashkiliy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan birgalikda ko'rib chiqishga imkon beradi. Integratsiyalashgan hisobotning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari bag'ishlangan izlanishda esa korporativ axborotning ochiqligi hamda hisobot amaliyotining xalqaro miqyosda kengayishi tahlil qilingan [13]. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar hisobot mazmunini korxonaning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish ahamiyatini ochib beradi.

Sifat xarajatlarini guruhlashda oldini olish, baholash va nuqsonlar bilan bog'liq xarajatlarni ajratuvchi PAF modeli muhim uslubiy asos hisoblanadi [11]. Qurilish faoliyatiga tatbiq etilganda ushbu tasnif loyiha ekspertizasi, xodimlarni tayyorlash, laboratoriya sinovlari, texnik nazorat, qayta bajarilgan ishlar va kafolatli ta'mirlash xarajatlarini alohida hisobga olishga xizmat qiladi. Nuqsonlar xarajatlarini ichki va tashqi guruhlariga ajratish esa obyekt topshirilishidan oldingi hamda undan keyingi yo'qotishlarni farqlash imkonini beradi. Bu tasnif sifatni ta'minlashga sarflangan mablag'lar bilan sifat talablariga rioya etilmasligi oqibatidagi xarajatlarni qiyoslash uchun zarurdir.

Manfaatdor tomonlarning korporativ ijtimoiy mas'uliyatdagi roliga bag'ishlangan tadqiqotda korxona faoliyatidan manfaatdor guruhlar, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi tuzilmalar va tartibga soluvchi institutlarning vazifalari farqlangan [14]. Qurilish korxonalarida bunday yondashuv buyurtmachilar, investorlar, xodimlar, mahalliy aholi va nazorat organlarining axborot ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. Shunga ko'ra, sifat xarajatlari haqidagi ma'lumotlar foydalanuvchilar uchun ahamiyatli bo'lgan xavfsizlik, obyekt ishonchliligi, kafolat majburiyatlari va ekologik ta'sir ko'rsatkichlari bilan bog'lanishi lozim.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatga oid izlanishda kompaniyaning barqaror rivojlanishi uning jamiyat oldidagi majburiyatlari va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlari orqali talqin qilingan [15]. Qurilish sohasida bu yondashuv xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash, sifatli obyektlarni topshirish va resurslar isrofini kamaytirish masalalarini birgalikda o'rganishga asos yaratadi. Korporativ hisobotning nazariy asoslariga bag'ishlangan tadqiqotda esa axborotning ishonchliligi, o'z vaqtida taqdim etilishi, solishtiriluvchanligi va shaffofligi kabi sifat xususiyatlari tizimlashtirilgan [16]. Ushbu xususiyatlar sifat xarajatlari bo'yicha hisob

ma'lumotlarini hisobot foydalanuvchilari uchun tushunarli va tekshiriladigan shaklda taqdim etishda ahamiyatlidir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishga oid tadqiqotda axborot jarayonlarini raqamlashtirish bilan birga yuzaga keladigan risklarni boshqarish masalalari ko'rib chiqilgan [17]. Bu yondashuv qurilishdagi texnik nazorat, laboratoriya sinovlari va nuqsonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni buxgalteriya axboroti bilan bog'lashda ma'lumotlar yaxlitligi va ishonchliligini ta'minlash zaruratini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotda integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha uslubiy takliflar ishlab chiqilib, ularning qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalardagi qo'llanish tajribasi yoritilgan [12]. Ushbu tajriba qurilish korxonalari uchun hisobot modelini ishlab chiqishda foydali asos bo'lsa-da, qurilish-montaj faoliyatidagi loyiha davomiyligi, obyektlarning individual xususiyatlari va kafolat majburiyatlarini alohida hisobga olish talab etiladi. Mazkur maqola sifat xarajatlarining PAF tasnifini moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan bog'lash hamda tegishli axborotni ichki boshqaruv va integratsiyalashgan hisobotda izchil aks ettirish masalasiga qaratildi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi bir necha o'zaro to'ldiruvchi tahlil usullari asosida shakllantirildi. Dastlab qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, Milliy buxgalterlik hisobi standartlari (BHMS) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xususan IFRS 15 (Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum) talablari o'zaro solishtirildi [10]; shu bilan bir qatorda, qurilishdagi sifat xarajatlarini guruhlash maqsadida PAF modeli (Prevention, Appraisal, Failure) asos qilib olindi [11]. Institutsional tahlil doirasida O'zbekistondagi "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi hamda qurilish-pudrat tashkilotlarining elektron reytingiga oid ma'lumotlar o'rganildi, bu esa qurilish korxonasi uchun ichki va tashqi integratsiyalashgan hisobot shakllari loyihasini modellashtirish imkonini berdi. Nihoyat, ishlab chiqilgan xulosalarning amaliy asoslanganligini sinash maqsadida empirik tahlil o'tkazilib, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasiga qarashli korxonalarning 2022-2024 yillardagi amaliy faoliyat ko'rsatkichlari tahlil qilindi [12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasida sifat xarajatlari, sut yoki yengil sanoatdan farqli o'laroq, juda katta kapital va uzoq muddatni qamrab oladi. Tadqiqotlarimiz natijasida qurilishdagi sifat xarajatlarini integratsiyalashgan hisobot uchun quyidagicha tasniflash taklif etildi:

Qurilishdagi sifat xarajatlari tasnifi. Tadqiqotlarimiz natijasida qurilishdagi sifat xarajatlarini integratsiyalashgan hisobot uchun PAF modeli asosida to'rt guruhga tasniflash taklif etildi: birinchisi - oldini olish xarajatlari, ya'ni loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, xodimlar malakasini oshirish, xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajar hamda sifatli qurilish materiallarini tanlashga qaratilgan tender xarajatlari; ikkinchisi - baholash xarajatlari, jumladan qurilish laboratoriyasi xizmatlari (xususan, beton mustahkamligini sinash), geodezik o'lchovlar va texnik nazoratchi xizmati haqi;

uchinchisi - ichki nuqsonlar xarajatlari, ya'ni qurilish maydonining o'zida aniqlanib tuzatilgan kamchiliklar, qayta bajarilgan ishlar va buzilgan materiallar qiymati; to'rtinchisi esa - tashqi nuqsonlar xarajatlari, ya'ni obyekt topshirilgandan keyin kafolat muddati davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, jarimalar va sud xarajatlari. Ushbu tasnif qurilish korxonalarida sifat xarajatlarining butun hayotiy sikli - loyihalashdan tortib kafolat muddati tugagunga qadar - bo'ylab kuzatib borilishini ta'minlaydi va ularni quyida taklif etilayotgan integratsiyalashgan hisobot modeliga (1-jadval) kiritish uchun uslubiy asos yaratadi.

Integratsiyalashgan hisobot modeli. Qurilish korxonalari uchun taklif etilayotgan integratsiyalashgan hisobot an'anaviy moliyaviy hisobotdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi (1-jadval).

1-jadval

Qurilish korxonalari uchun integratsiyalashgan hisobotning kapital turlari bo'yicha tarkibiy modeli¹

№	Kapital turi	Ko'rsatkichlar	Qiymat yaratish mexanizmi
1	Moliyaviy kapital	Sof foyda, EBITDA, qurilish tannarxi	Samarali smeta va xarajatlar nazorati
2	Ishlab chiqarish kapitali	Texnika parki, zamonaviy opalubkalar	Texnologik yangilanish hisobiga ish sifatini oshirish
3	Inson kapitali	Muhandis-texnik xodimlar malakasi	Xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish xarajatlari
4	Tabiiy kapital (Ekologik)	Qurilish chiqindilarini qayta ishlash, energiya tejankor materiallar	Sifat xarajati: Sifatsiz ish = ortiqcha material isrofi va chiqindi
5	Ijtimoiy kapital	Obyektning ijtimoiy ahamiyati, aholi e'tirozi yo'qligi	"Shaffof qurilish" reytingidagi o'rni

Ichki hisobot tizimi. Rahbariyat darajasida tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlash maqsadida ikki turdagi ichki hisobot shaklini joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi: birinchisi qurilish-montaj ishlaridagi yaroqsiz ishlar (brak) va ularni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar to'g'risidagi hisobot, ikkinchisi esa qurilish materiallarining laboratoriya sinovlari natijalari hamda tegishli xarajatlar byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot. Ushbu ikki hisobot shakli birgalikda sifat xarajatlarining ichki va baholash guruhlarini oylik yoki choraklik kesimda kuzatib borish, ularni byudjet ko'rsatkichlari bilan solishtirish hamda zarur hollarda tezkor tuzatuvchi choralarni ko'rish imkonini beradi.

Taklif etilgan yondashuvning amaliy asoslanganligini tasdiqlash maqsadida qurilish materiallari sanoati korxonalarida integratsiyalashgan hisobot elementlarining joriy etilishi tahlil qilindi. Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi ("O'zsanoatqurilishmateriallari") O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, unga 158 ta korxona va tashkilot ixtiyoriy asosda a'zo hisoblanadi [12]. Mazkur uyushma qurilish sanoatining xom ashyo ta'minoti va materiallar sifati bilan bevosita bog'liq bo'lganligi

¹ Muallif ishlanmasi

sababli, uning tarkibidagi korxonalar misolida olingan natijalar qurilish sohasidagi sifat xarajatlari va integratsiyalashgan hisobot o'rtasidagi bog'liqlikni amalda ko'rsatish uchun ishonchli asos bo'la oladi.

Xususan, nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi hamda integratsiyalashgan hisobotni tuzish reglamenti loyihasi "Gazobeton story" MCHJ, "Temir beton" MCHJ va "Orient keramik" MCHJ korxonalari amaliyotiga joriy etilgan [12]. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2023-yilda 2022-yilga nisbatan quyidagi ko'rsatkichlarga erishilgan: "Gazobeton stroy" MChJda aylanma mablag'lar 5 foizga va mahsulot sotishdan tushgan tushum 3 foizga oshgan; "Temir beton" MChJda investitsiyalarni jalb qilish 6 foizga oshgan, tayyor mahsulot tannarxi esa 3 foizga kamaygan; "Orient keramik" MChJda rentabellik 7 foizga va mahsulot sotish hajmi 8 foizga oshgan [12].

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan hisobot komponentlarining joriy etilishi nafaqat hisobot shaffofligini oshiradi, balki korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Shuningdek, tannarx pasayadi, aylanma mablag'lar va sotish hajmi ortadi, investitsion jalbdorlik kuchayadi. Demak, sifat xarajatlarini integratsiyalashgan hisobot orqali shaffof ochiqlash modelining iqtisodiy samaradorligi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tasdiqlanadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan hisobotni joriy etish qurilish korxonalariga faqatgina moliyaviy hisobotga rioya qilish chegarasidan strategik qadriyat yaratish mexanizmiga o'tish imkonini beradi. An'anaviy buxgalteriya hisobidagi eng katta muammo bu qurilish sohasidagi sifatsizlikning yashirin xarajatlarini, ya'ni qayta ishlash va jarimalardan tashqari, reputatsiya zarari, loyiha muddatining cho'zilishi hamda kafolat davridagi qo'shimcha xarajatlar kabi moliyaviy yo'qotishlarni to'liq aks ettira olmaslikdir. Taklif etilgan integratsiyalashgan hisobot modeli esa, korxonaning sifat xarajatlarini oldini olishga sarflagan har bir so'mi kelgusidagi nomoliyaviy va moliyaviy risklarni qanchalik kamaytirganini investorlarga ochiqlab, ularning korxonaga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi va korxonaning risklarni boshqarish salohiyatini namoyish etadi.

O'zbekiston sharoitida integratsiyalashgan hisobotni amaliyotga tatbiq etishda bir qator institutsional va insoniy omillar mavjud: asosiy muammolardan biri bu buxgalterlar va moliyachilarning aksariyatida ESG, xatarlarni boshqarish va nomoliyaviy kapitallarni baholash bo'yicha yetarli malakaning mavjud emasligidir. Bundan tashqari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan joriy qilingan "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida to'plangan texnik va ijroga oid ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy hisobot bilan bog'lash, ya'ni "texnik" ma'lumotni strategik "moliyaviy" qarorga aylantirishning yaxlit mexanizmi shakllanmagan. Integratsiyalashgan hisobotning hozircha tavsiyaviy xarakterga egaligi ham uning keng tatbig'iga to'sqinlik qilmoqda. Shunday bo'lsa-da, ushbu tizimni joriy etish xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlarning talablarini qondirish, shu orqali mamlakatga investitsiyalar oqimini oshirish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan hisobotni majburiy tatbiq etish tajribasi xorijda allaqachon sinovdan o'tgan. Janubiy Afrika Respublikasida Yoxannesburg fond birjasi listing kompaniyalari uchun 2010-yil 1-martdan boshlab integratsiyalashgan hisobot taqdim etish majburiy talab etilgan [13], natijada mazkur mamlakat hozirga qadar tuziladigan hisobotlarning soni va sifati bo'yicha dunyoda yetakchiligini saqlab kelmoqda. Xususan, KPMG tadqiqotiga ko'ra, 2020-yilda Janubiy Afrikaning 100 ta yirik kompaniyasidan 94 tasi integratsiyalashgan hisobot shakllantirgan [13]. Umumjahon miqyosida ham tendensiya shundan dalolat beradiki, dunyoning eng yirik 250 ta kompaniyasining (G250) 2020-yilda 96 foizi nomoliyaviy hisobot tuzgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2005 yilda atigi 64 foizni tashkil etgan; shuningdek, 71 foizi hisobotlarini mustaqil tashkilotlarga tasdiqlatgan 2005-yildagi 30 foizga nisbatan deyarli ikki barobar ko'p [13]. Nomoliyaviy hisobot tuzishda Yaponiya (100%), Malayziya (99%), Hindiston va AQSH (98%), Fransiya (97%), Buyuk Britaniya (94%) kabi mamlakatlar yetakchilik qiladi [13]. Mazkur xalqaro tendensiya shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan hisobotni avval ixtiyoriy, so'ngra bosqichma-bosqich majburiy tartibga o'tkazish strategiyasi amaliyotda o'zini oqlagan — O'zbekiston qurilish tarmog'i uchun ham xuddi shunday bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sohaning miqyosini ko'rsatuvchi rasmiy raqamlar bu tezisni yana ham asoslaydi: Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 23,6 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 46,2 foizni, jismoniy shaxslarning ulushi esa 30,2 foizni tashkil etdi [6]. Bunday tuzilma sifat xarajatlarini boshqarish tizimi nafaqat yirik pudratchilarni, balki keng tarmoqli kichik subyektlar va jismoniy shaxslarni ham qamrab olishi zarurligini ko'rsatadi, chunki aynan shu toifadagi ishtirokchilarda ichki laboratoriya nazorati va sifat menejmenti tizimlari ko'pincha yetarli darajada shakllanmagan. 2017-yildan buyon mamlakatda jami 394,9 ming kvartiradan iborat, 26,05 million kvadrat metrlik 7888 ta uy-joy bino barpo etilgan [9]. Bunday miqyosdagi faoliyatda sifat nazorati tizimining yo'qligi yoki zaifligi milliard-milliard so'mlik qayta ishlash va nuqsonlarni bartaraf etish xarajatlariga olib kelishi, shu bilan birga tabiiy resurslar isrofini kuchaytirishi mumkin — bu esa taklif etilayotgan integratsiyalashgan hisobot modelining amaliy zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu tizimning joriy etilishi ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lib, sifat xarajatlarini ochiqlash, qurilish chiqindilarini va materiallar isrofini kamaytirish orqali mamlakatimizning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi, zero sifatsiz ish bu nafaqat pul yo'qotish, balki behuda sarflangan tabiiy resurs va ekologik zarardir. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan yuritilayotgan pudratchilarning reytingini sifat xarajatlari va ekologik ko'rsatkichlar bilan bog'lash orqali tarmoqda sog'lom raqobat muhiti yaratiladi, bunda sifatsiz ishlarni amalga oshirgan korxonalarning kelgusidagi loyihalarda ishtirok etish imkoniyati cheklanadi. Shu sababli, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yirik loyihalar uchun integratsiyalashgan hisobotni majburiy qilib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash jarayonida buxgalterning professional fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buxgalterning professional fikri bu buxgalteriya tizimida haqiqatga mos keladigan ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradigan xo'jalik faoliyati jarayonlari o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlash, o'rnatish va baholash hamda hisobot foydalanuvchilari o'rtasida noaniq baholarning shakllanishiga yo'l qo'ymaydigan ilmiy fikrlashning maxsus shaklidir [12]. Qurilish korxonalarida sifat xarajatlarini (ayniqsa, PAF modelining "baholash" va "ichki nuqsonlar" guruhlarini) to'g'ri aniqlash xuddi shu professional fikrga bog'liq bo'lib, bu borada buxgalterlar va moliyachilarning malakasini oshirish zarurati yana bir bor tasdiqlanadi.

Integratsiyalashgan hisobot foydalanuvchilarini aniqlashda manfaatdor tomonlarni turli toifalarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq. I.Fassinning yondashuviga ko'ra, manfaatdor tomonlar uchta guruhga bo'linadi: kompaniya faoliyatidan bevosita manfaat ko'zlaydigan stejkxolderlar (mulk egalari, xaridorlar, xodimlar); shaxsiy manfaat ko'zlamay, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi stejkvotcherslar (kasaba uyushmalari, ekologiya tashkilotlari); hamda kompaniya faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil tartibga soluvchi stejkkiperslar (davlat, sud va sertifikatlashtirish organlari) [14]. Qurilish korxonasi kontekstida bu tasnif amaliy ahamiyatga ega: masalan, texnik nazorat (texnadzor) xizmati va qurilish laboratoriyalari stejkkipers sifatida, mahalliy jamoatchilik va ekologiya tashkilotlari esa stejkvotchers sifatida qaralishi mumkin, bu esa integratsiyalashgan hisobotda har bir guruh uchun zarur ma'lumot darajasini to'g'ri belgilashga yordam beradi [14]. Shuningdek, qurilish korxonalarining davlat, mahalliy hokimiyat organlari, jamoatchilik, mulk egalari va xodimlar kabi asosiy manfaatdor guruhlari oldidagi mas'uliyati - soliqlarni o'z vaqtida to'lash, yangi ish o'rinlari yaratish, atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashdan iborat bo'lib [14], bu mas'uliyatlarning barchasi korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) tushunchasi doirasida birlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda KIM turlicha ta'riflangan bo'lsa-da, uning mohiyati - kompaniyaning jamiyatga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini kuchaytirish, obro'sini mustahkamlash hamda ichki va tashqi manfaatdor tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyatga integratsiyalashuvdir [15]. Qurilish korxonalari uchun bu, avvalambor, xavfsiz mehnat sharoiti va sifatli obyektlar yetkazib berish orqali namoyon bo'ladi ya'ni sifat xarajatlarini boshqarish amalda KIMning ajralmas qismiga aylanadi.

Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishda xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan sifat tamoyillariga (moslik, o'z vaqtidalik, ishonchlilik, haqqoniylik, solishtiriluvchanlik, ahamiyatlilik, shaffoflik) rioya qilish zarur [16] aynan shu tamoyillar moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarni investorlar, kreditorlar hamda boshqa foydalanuvchilar uchun foydali qiladi. Bundan tashqari, hisobotni shakllantirish jarayonining o'zi izchil bosqichlarni o'z ichiga olishi lozim: hisobot tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, uning konsepsiyasini ishlab chiqish, moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarni yig'ish, hisobotni tayyorlash va tahlil qilish, nihoyat, uni barcha manfaatdor tomonlarga taqdim etish [16]. Qurilish korxonalari uchun taklif

etilayotgan ushbu integratsiyalashgan hisobot modeli aynan shu izchillikka asoslangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning yana bir muhim jihati boshqaruv hisobini raqamlashtirish va biznes jarayonlarini reinjenering texnologiyasi orqali qayta loyihalash bilan bogʻliq xatarlardir. Xususan, katta hajmdagi maʼlumotlarni raqamli tizimlarda saqlash yuqori darajadagi kiber-risklar va firibgarlik risklari bilan birga keladi [17], shu sababli "Shaffof qurilish" tizimi orqali toʻplanadigan texnik maʼlumotlarni moliyaviy hisobot bilan integratsiyalashda ushbu risklarni boshqarish metodlarini (riskdan voz kechish, uni lokalizatsiya qilish, cheklash yoki sugʻurtalash) integratsiyalashgan hisobot tarkibidagi "xatarlar" elementida ochiq koʻrsatish tavsiya etiladi [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekistonning jadal rivojlanayotgan qurilish industriyasida sifat xarajatlarini anʼanaviy moliyaviy hisobot doirasida aks ettirish yetarli emas, chunki bu xarajatlarning strategik ahamiyati va nomoliyaviy kapitallarga taʼsiri yashirin qolib ketmoqda. Bizning tadqiqotimiz qurilish korxonalari uchun mahsulot sifati bilan bogʻliq xarajatlarni PAF (Oldini olish, baholash, nuqsonlar) modeli asosida aniq tasniflash va ularni integratsiyalashgan hisobot tizimiga kiritish orqali tadqiqot maqsadiga erishdi.

Integratsiyalashgan hisobotni joriy etish qurilish korxonalariga faqatgina moliyaviy koʻrsatkichlarga tayanish oʻrniga, oʻzlarining risklarni boshqarish salohiyatini, ijtimoiy masʼuliyatini va ekologik barqarorligini (ESG) ochiqlash imkonini beradi. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va korxonaning bozordagi imijini oshirish uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Qurilishdagi sifatsizlik xarajatlari (qayta ishlash, yaroqsiz materiallar) nafaqat tannarxni oshiradi, balki tabiiy kapitalga (resurslarning isrofi, chiqindilar hajmining ortishi) ham bevosita salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, ushbu xarajatlarni aniq hisobga olish esa korxonaning "yashil iqtisodiyot"ga oʻtish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Rahbariyat darajasida tezkor qaror qabul qilish uchun qurilish korxonalarining ichki boshqaruv hisobotida yaroqsiz ishlar, kafolatli taʼmirlash va laboratoriya sinovlari boʻyicha xarajatlar alohida markazlar boʻyicha tahliliy yoritilishi zarur.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi tomonidan davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan yirik qurilish loyihalarida integratsiyalashgan hisobotni (shu jumladan, sifat xarajatlari va ESG koʻrsatkichlarini) majburiy tatbiq etish boʻyicha normativ-huquqiy asoslarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Qurilish korxonalari "Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida"gi Qonun talablariga muvofiq, oʻzlarining hisob siyosatiga sifat xarajatlarini aniq tasniflash va ularni nomoliyaviy koʻrsatkichlar bilan bogʻlash tartiblarini kiritishlari lozim.

"Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining texnik maʼlumotlarini (sinov natijalari, nuqsonlar dalolatnomalari) korxonaning moliyaviy hisobot tizimi bilan integratsiya qilish orqali integratsiyalashgan hisobotni avtomatlashtirish yoʻlga

qo'yilishi lozim. Tizimning qurilishga ruxsat muddatini 39 kundan 25 kungacha qisqartirgani kabi aniq natijalar ko'rsatib turibdiki, raqamli infratuzilma moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarni bog'lash uchun yetarli asosga ega.

Qurilish va moliya sohalari mutaxassisleri uchun MHXS/IFRS 15 asosida integratsiyalashgan hisobotni tuzish va sifat xarajatlarini baholash bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Bunda buxgalterning professional fikrini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi, shuningdek hisobot foydalanuvchilarini (steykxolder, steykvotcher, steykkiper) aniq toifalarga ajratgan holda o'qitish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Integrated Reporting Council (IIRC). The International <IR> Framework.
2. Maxsudov B.YU., Abduvaliyev Z.M. Integrallashgan hisobot korporativ hisobot rivojlanishini yangi bosqichi sifatida. "Buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etishning dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. - T.: TMI, 2021 yil, 21 may. - B. 581-584.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5130468>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevral PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori <https://lex.uz/docs/-4746047>
5. MarketsandMarkets. Construction Market - Global Forecast. www.marketsandmarkets.com.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, 2024-yil (dastlabki ma'lumotlar)". stat.uz rasmiy matbuot relizi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 20-sentyabr PQ-4464-son "Qurilish faoliyati jamoatchilik uchun ochiq bo'ladi", "Shaffof qurilish" tizimining Toshkent viloyatida tajriba tariqasida joriy etilishi to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4523181>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi 732-son "Qurilish sohasida axborot tizimi va geografik axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5112432>
9. O'zbekiston Milliy axborot agnetligi rasmiy sahifasi (uza.uz).
10. International Financial Reporting Standards (IFRS): IFRS 15 - Revenue from Contracts with Customers. IFRS Foundation.
11. Feigenbaum, A.V. Total Quality Control (PAF: Prevention-Appraisal-Failure xarajatlar modeli asosi).

12. Abduvaliyev Z.M. Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024. 146 b.

13. Maxsudov B.YU., Abduvaliyev Z. Integratsiyalashgan hisobot: genezisi va istiqbolda rivojlanishi. "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida buxgalteriya hisobi, audit, tahlil va nazorat tizimlarini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. - T.: TDIU, 2021-yil, 15-oktyabr. - B. 248-253.

14. Maxsudov B.YU., Abduvaliyev Z.M. Manfaatdor tomonlar (steykxolderlar)ning korporativ ijtimoiy mas'uliyatdagi roli. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2021-yil, №3. - B. 49-57.

15. Maxsudov B., Abduvaliyev Z. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat zamonaviy kompaniyalar barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Jamiyat va boshqaruv, 2021-yil, №3 (93). - B. 140-146.

16. Maxsudov B., Abduvaliev Z. Theoretical Foundations of the Formation of Corporate Reporting. Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 8, 2021. - P. 86-96.

17. Maxsudov B.Y., Abduvaliyev Z. Raqamli iqtisodiyot sharoitida integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish xususiyatlari. Innovation in the Modern Education System, Part 18. - Washington, USA: CESS, 2022-yil, 25-may. - B. 521-531.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**